


## 2021- yil uchun Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilda Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 26 900,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 9,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 114,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,7 % ga yetdi.



**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mird. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da</i>
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	21 467,9	26 900,3	109,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	20 853,3	26 011,3	109,2
mahsulotlarga sof soliqlar	614,6	889,0	109,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>20 853,3</b>	<b>26 011,3</b>	<b>109,2</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>9 838,5</b>	<b>11 880,1</b>	<b>103,9</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 813,3</b>	<b>5 320,3</b>	<b>122,1</b>
sanoat	2 566,5	3 459,1	117,2
qurilish	1 246,8	1 861,2	132,3
<b>xizmatlar</b>	<b>7 201,5</b>	<b>8 810,9</b>	<b>109,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 100,0	1 366,0	110,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 146,6	1 455,8	117,2
boshqa xizmat tarmoqlari	4 954,9	5 989,1	107,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 093,5 ming so‘nni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 7,6 % ga yuqoridir.

### 2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘sish sur’atlari

2020- yil

2021- yil

*Aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHM,  
ming so‘m*

11 419,7

14 093,5

*Aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHM,  
o‘sish sur’ati*

99,8 %

107,6 %

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 96,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,3 % ini tashkil etdi.



Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 45,7 % ni, sanoat tarmog‘i - 13,3 % ni, qurilish - 7,2 % ni va xizmatlar sohasi 33,8 % ni tashkil qildi.



**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi**  
*(jamiga nisbatan % da)*

	<b>2020- yil</b>	<b>2021- yil</b>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,1	96,7
mahsulotlarga sof soliqlar	2,9	3,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>	<b>47,2</b>	<b>45,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>18,3</b>	<b>20,5</b>
sanoat	12,3	13,3
qurilish	6,0	7,2
<b>xizmatlar</b>	<b>34,5</b>	<b>33,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,3	5,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,5	5,6
boshqa xizmat tarmoqlari	23,7	22,9

**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**




Yalpi qo'shilgan qiymat

Mahsulotlarga sof soliqlar


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 45,7 %), sanoatda – 117,2 % (13,3 %), qurilishda – 132,3 % (7,2 %), xizmatlar sohasida – 109,6 % (33,8 %)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,1 % (5,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarida 117,2 % (5,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,7 % (22,9 %)dan iborat bo'ldi.

**2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilga nisbatan % da)**




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,8 f.p. (2020- yilda – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,0 f.p. (2020- yilda – 0,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,9 f.p. (2020- yilda salbiy -0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,2 f.p. (2020- yilda – salbiy 0,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2020- yilda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

**2021- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi**  
(jamiga nisbatan % da)



2021- yilda YAHM deflyatori indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 114,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 116,2 % va sanoat tarmog'ida – 115,0 % darajada qayd etildi.

**2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)**



**2021- yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi  
(jamiga nisbatan % da)**

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 73,9 % ni tashkil qildi (2020- yilda – 76,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

